



KONCHILIK LEKSIKASINING UMUMADABIY TIL BILAN O'ZARO MUNOSABATI

Muallif: Aziza Azimova Alisher qizi ¹

Affilyatsiya: Xalqaro Nordik Universiteti katta o'qituvchisi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15202511>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola konchilik terminlarining soha doirasida va umumadabiy tilda qanday qilib turli kontekstlarda ishlatilishini ko'rib chiqib, soha leksik birliklarning qo'llanish doirasi va o'zaro umumadabiy til bil bog'liqlik va farqlilik jihatlarini yoritib berishni maqsad qiladi. Kon leksikonining umumadabiy til bilan o'zaro ta'sirini turli yo'llar bilan ko'rish mumkin. Konchilik terminologiyasi tog' - kon sanoatida ishlatiladigan o'ziga xos lug'at va atamalarga ega. Biroq, bu atamalar ko'pincha kundalik tilga singib ketishi va umumiy kontekstda ishlatilishi mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot konchilik leksikasi umumadabiy til bilan o'zaro munosabatda bo'lishi, tilning rivojlanishiga va muayyan sohalardagi bilimlarning almashinuviga ta'siri muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: umumadabiy til, leksikon, atamalar, leksik-semantik, tushuncha, ma'no, mohiyat, qatlam, so'z qo'llanish doirasi, o'z ma'no, ko'chma ma'no, semantik mazmun.

KIRISH

Fan va texnika taraqqiyoti, turli sohalarning ravnaq topib borayotgani terminologiyaga ham katta vazifalar yuklamoqda. Unda o'rganilishi va tadqiq etilishi kerak bo'lgan ko'plab soha terminlarini tasniflash va turlarga ajratish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda. Terminologiyada o'z ifodasini topgan tushunchalarni tasniflash imkoniyati va zaruriyati terminologik leksikaning umumxalq tiliga nisbatan farqli xususiyati sifatida ko'rib chiqiladi. Chunki terminlar ilmiy konsepsiya bilan bog'liq, ularda ilmiy kashfiyotlar, tadqiqotlar hamda nazariy va amaliy natijalari o'z ifodasini topadi. Terminlar maxsus kasbiy sohalardagi kommunikatsiya, u yoki bu kasbiy sohada yuzaga kelayotgan hodisalar, konsepsiyalar, fenomenlarni tavsiflash vositasi sanaladi. Bu tabiiy ravishda Vatanimiz, xorijiy olimlarni terminlarni tartibga solish, unifikatsiya qilish va tizimlashtirish uchun urinishlariga olib keladi. Terminlarni maxsus sohalarda bo'yicha tasniflash va tavsiflash muhim ahamiyatga ega: u ilm-fan, ijtimoiy sohalarning ma'lum davrdagi tadrijiy rivojlanish darajasini aks ettiradi. Tog'-kon sanoati ixtisoslashgan o'ziga xos leksikaga ega murakkab sanoat bo'lib, samarali muloqot uchun aniq va izchil terminologiyaga tayanadi. Biroq lug'atlar bo'ylab kon atamalarining ta'riflaridagi nomuvofiqliklar va noaniqliklar sanoatda tushunish va muloqot qilishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Butun dunyoda tog'-kon faoliyati bilan bog'liq til amaliyoti sotsiolingvistika uchun alohida qiyinchilik tug'diradi, chunki konchilik faoliyati bir qator o'ziga xos ijtimoiy ekologik sharoitlarni yaratadi. Ishimizning maqsadi – tog'-kon

tillarining ijtimoiy amaliyoti va tarkibiy xususiyatlarini qiyosiy nuqtai nazardan o'rganishdir. Tog'-kon tillari o'ziga xos ijtimoiy ekologiyaga ega.

Ingliz va o'zbek tillarida tog'-kon terminologiyasini o'rganish tog'-kon sanoati sohasida qo'llaniladigan lingvistik manbalar va ixtisoslashgan tillar haqida qimmatli tushunchalar beradi. Tog'-kon atamalarining leksik-semantik xususiyatlarini tushunish soha mutaxassislari, tadqiqotchilar, siyosatchilar va manfaatdor tomonlar o'rtasida foydali suhbat yaratish, bilimlarni keng jamoatchilikka yoyish va hamkorlik qilish uchun lozimdir. Madaniy va lingvistik omillarning kon terminologiyasiga ta'siri mahalliy konchilik amaliyotlari, mintaqaviy qoidalar va ijtimoiy qadriyatlarni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu ta'sirlarni tan olish global tog'-kon sanoatida samarali madaniyatlararo muloqot va hamkorlik uchun juda muhimdir. Konchilik terminologiyasidagi standartlashtirish va izchillik samarali muloqot va bilim almashish uchun juda muhimdir. Turli tillar va mintaqalarda atamalar va ta'riflardan izchil foydalanish aniq tushunishni osonlashtiradi va chalkashliklarni kamaytiradi. Tog'-kon lug'atlari, terminologiya ma'lumotlar bazalari va ko'p tilli til vositalarini ishlab chiqish va qabul qilish ushbu standartlashtirishga erishishga yordam beradi va sohada tillardan izchil foydalanishni rag'batlantiradi. Tog'-kon terminologiyasi doirasidagi turli semantik sohalar va assotsiatsiyalarni aniqlash bizning kon tushunchalarining o'zaro bog'liqligini tushunishimizni kuchaytiradi (Petrov, M., & Ahmedov, 2016). Ushbu bilim mutaxassislarga ixtisoslashgan tilda samarali navigatsiya qilish imkonini beradi va tog'-kon sanoati sohasida bilim almashish va hamkorlikni osonlashtiradi. Maxsus kon terminologiyasini o'rganish muhim va dolzarbdir. Hozirgi kunda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlar mutaxassislari va olimlari qaratgan asosiy vazifa ham aynan tog'-kon fanining so'nggi yutuqlari sohasida axborot almashinuvini jadallashtirishga ko'maklashuvchi tarjimalarga ega bo'lish. Konchilikka oid bo'lgan so'zlarning ma'nosi bir xillikni kasb etishi mumkin, faqat ularning umumadabiy til jihatidan qo'llanishi farqlilikka ega bo'lishi mumkin. Konchilikka oid bo'lgan terminlarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash uchun "termin" tushunchasi va uning asosiy xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Atamalarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarga qaramay, atamani tushunishdagi asosiy muammolardan biri uning ta'rifi bo'lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Ingliz va o'zbek tillaridagi kon atamalarining texnik aniqligi va o'ziga xosligi aniq va bir ma'noli muloqotni ta'minlaydi va bu holat umumxalq uchun ham qulaylik hosil qiladi. Aniq terminologiya turli konchilik faoliyatini, asbob-uskunalarini va qoidalarini aniq tasvirlab beradi, bu esa mutaxassislarga ma'lumotlarni to'g'ri va samarali yetkazish imkonini beradi.

Konchilik leksikasi, ya'ni kasbiy, ilmiy va texnik sohalarga oid so'zlar va iboralar, umumabadiy til bilan muhim aloqaga ega. Ushbu munosabat quyidagi jihatlardan iborat:

1. So'z boyligi. Konchilik leksikasi umumabadiy tilning so'z boyligini kengaytiradi. Maxsus so'zlar, ko'pincha, umumiysoz so'zlardan kelib chiqadi, bu esa tilning rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. Ta'rif va izoh: Konchilik leksikasi terminlarini tushunish uchun umumabadiy til bilish zarur. Bu, masalan, texnik asboblari yoki jarayonlar haqida gapirganda muhim ahamiyatga ega.

3. Mutaxassislararo muloqot: Konchilik leksikasi, mutaxassislar o'rtasida samarali muloqot qilish imkonini beradi. Bu o'z navbatida, umumabadiy til bilan do'stlikni mustahkamlaydi.

4. Qabul qilish va o'zlashtirish: Umumabadiy til konchilik leksikasi bilan yangi so'zlar qabul qilib, ularni o'zlashtiradi. Bu jarayon, tilni zamonaviylashtirishda muhim rol o'ynaydi.

5. Ijtimoiy va madaniy kontekst: Konchilik leksikasi ijtimoiy va madaniy kontekstda umumabadiy tilga ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yangi terminlar va iboralar asosida madaniy muhokamalar olib boriladi (Gu, 2005).

Umuman olganda, konchilik leksikasi va umumabadiy til o'rtasidagi munosabat o'zaro muhimdir va bu jarayon tilning dinamik rivojlanishini ta'minlaydi.

Konchilik terminologiyasini o'rgatishda ona tilning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak, bu esa atamalarining semantik mazmunini adekvat lingvistik vositalar yordamida yetkazishning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga, mexanizmlardan qochishga imkon beradi.

Albatta, bu kabi so'zdagi yasallishlar, o'zgarishlar umumxalq tilini biroz murakkablashtirishi mumkin. Masalan, aholida konchilik sohasiga oid bo'lgan bir qancha so'zlar jamlanmasi mavjud va bu leksikalar ularning nutqiy jarayonlariga tayyor holda olib kirilgan, ya'ni uning qolipi shakllangan. Inson nutqiy faoliyatini shu qoliplar asosiga quradi (qachonki soha vakillari yoki qiziquvchilari bilan suhbatda bo'lganda). Konchilikka oid bo'lgan so'zlar har doim ham umumadabiy til bilan bir xillikni kasb etmaydi va bu kabi holatlar leksikalarni kerakli o'rinda qo'llay bilmaslik holatini yuzaga keltiradi. Ya'ni shu so'z xalq tilida boshqa ma'noni, konchilik sohasida esa boshqa bir ma'noni anglatishi mumkin. Ingliz va o'zbek tillarida bir qancha konchilikka oid bo'lgan tushunchalar mavjud va ularning ayrimlari umumadabiy tilda boshqa ma'noni, konchilik sohasida esa yana boshqa bir semada kelgani ko'rishimiz mumkin. Misol uchun,

1. Marmar - Konchilikda marmar yuqori sifatli tosh materialidir. Umumiy adabiyotda esa, bu so'z go'zallik yoki mukammallikni ifodalovchi metafora sifatida ishlatilishi mumkin. "Uning yozuvlari marmar singari mohirona va chiroyli".

2. Tosh - Konchilikda tosh minerallar va resurslarni anglatadi. Umumiy tilda tosh, mustahkamlik va asos sifatida ishlatilishi mumkin. "U tosh kabi mustahkam va ishonchli do'st".

3. Geologiya - Konchilikda geologiya yerning ichki tuzilishini o'rganishdir. Umumiy adabiyotda geologiya muayyan bir dinamik jarayonlar haqida mulohaza yuritishda ishlatilishi mumkin. "U geologiya asosida hayotning o'zgarishlarini yoritadi".

4. Analiz - Konchilikda resurslarni yoki materiallarni chuqur o'rganish jarayoni bo'lib, umumiy adabiyotda esa, ma'lumot yoki holatni tahlil qilishda qo'llaniladi. "U har bir tavsilotni analiz qilib, eng muhim jihatlarni aniqladi".

5. Eksploratsiya - Konchilikda eksploratsiya yangi kon yoki resurslarni izlash jarayonidir. Umumiy adabiyotda esa, yangi g'oya yoki imkoniyatlarni o'rganish uchun ishlatiladi. "U eksperimentlar va eksploratsiya orqali yangi yo'llar topdi".

6. Resurs - Konchilikda resurs yer osti boyliklarini anglatadi. Umumiy tilida esa, bu atama umumiy material yoki manba sifatida qo'llaniladi. "U ma'lumot qidirish uchun internet resurslardan foydalandi".

7. Mineral - Konchilikda mineral yer ostidagi resurslarni ifodalaydi. Umumiy adabiyotda esa "mineral" so'zi foydali yoki zaruriy moddalarni anglatadi, masalan, "U organizm uchun zarur mineral moddalar haqida qo'llanma yozgan".

8. Huzur - Metallni shakllantirish jarayonida ishlatilgan asboblarning to'plami. Umumadabiy tilimizda esa bu leksema huzur-halovat, ya'ni tinchlik, osoyishtalik kabi so'zlarning ma'nodoshi sifatida qo'llaniladi.

9. Zarba - Konchilikda metallni ishqalanishi yoki qiyshiq holatga keltirish jarayonini ifodalaydi.

Adabiy tilda esa:

1. Kuchli, shiddatli, zalvarli turtki, urilish; qattiq zarb. *Masalan: Hujumchining kuchli zarbasidan so'ng hisob ochildi. yash Yer bora-bora kuchga bo'ysunadi. Yo'lchining zarbasi ostida to'nkalar yalang'ochlana, o'zining qo'pol, bahaybat gavdasini ko'rsata boshladi (Oybek, „Tanlangan asarlar“).*

2. Yakson etuvchi, yo'q qiluvchi, shikastlovchi keskin harakat, shiddatli hujum. *Shiddatli zarbadan dushman talvasaga tushib qoldi. Nazarmat, „Jo'rlar baland sayraydi“.Mirzo Ulug'bek davom etdi: Inshoollo, paydarpay zarba bilan dushmanni parokanda qilib, tormor etamiz (Mirmuhsin, „Me'mor“).*

3.(ko'chma ma'noda) Og'ir kulfat, qattiq ruhiy shikayat, ziyon zahmat; turmush qiyinchiligi. *G'ulomjon so'nggi zarbaning (otasi vafoti-ning) og'ir jarohatidan uzoq vaqtgacha tuzala olmay yurdi (M. Ismoilij, „Farg'ona tong otguncha“).*

O'zbek tilida bo'lgan jarayon ingliz tilini ham chetlab o'tmagan. Ingliz tilida ham konchilikda faol, umumadabiy til uchun esa nafaol, yoki aksincha, har ikkala holatda ham bir-birini taqazo etuvchi leksemalar mavjud. Quyida ularning ba'zilari bilan tanishib chiqamiz:

1. Seam - Bu atama qadimgi inglizcha "seam" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "chiziqli" yoki "chegara" degan ma'noni anglatadi va bu qatlamlarning yerdagi alohida chiziqlar sifatida qanday ko'rinishini aks ettiradi. Konchilikda esa bu so'z tejamkor qazib olish uchun yetarlicha qalin bo'lgan qatlam, ko'mir qatlami yoki boshqa minerallarni ifodalab keladi. *M: [minable seam](#)- ishlab chiqarishga yaroqli qatlam (English-Russian mining dictionary. 2015).*

2. Tailings - eski inglizcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, "ergashish" yoki "izlamoq" ma'nosini anglatadi. Konchilikda esa bu so'z qimmatbaho minerallar qazib olingandan keyin qolgan chiqindi modda ma'nosini bildiradi (McGraw Hill Dictionary of Scientific and Technical Hill Dictionary of Hill Dictionary of Scientific & Technical Terms, 2003).

3. Dredge - inglizcha "dreg-qayiq" dan kelib chiqqan deb ishoniladi va daryo o'zanlaridagi loy va qoldiqlarni olib tashlash uchun ishlatiladigan qayiqni anglatadi. Bundan tashqari, umumadabiy tilda ko'chma ma'noda ham "dredge" so'zi "kovlashtirish ma'nosida ishlatiladi. *M: I don't care to dredge up the past- Men o'tmishni o'rganishga (kovlashtirishga) qiziqmayman.*

Tog' - kon sanoatida "dredge" so'zi suv havzalari tubidan qimmatbaho minerallar yoki boshqa materiallarni olish uchun ishlatiladigan uskunalarni anglatadi. M: Dredging was

then introduced, and within a few years the mussel beds in Tasman Bay and the Hauraki Gulf were dredged clean- Keyinchalik chuqurlashtirish joriy etildi va bir necha yil ichida Tasman ko'rfazi va Xauraki ko'rfazidagi midiya to'shaklari tozalandi.

Tweney va Hughesning Texnik lug'atida "dredge" so'zi quyidagicha ta'riflanadi: **1. Large floating machine used in underwater excavation for developing and maintaining water depths in canals, rivers, and harbors; raising the level of lowland areas and improving drainage; constructing dams and dikes;**-(Kanallar, daryolar va portlarda suv chuqurligini rivojlantirish va saqlash uchun suv osti qazishda ishlatiladigan katta suzuvchi mashina; pasttekisliklar darajasini oshirish va drenajni yaxshilash; to'g'onlar va to'g'onlarni qurish).

2. Very fine mineral matter held in suspension in water-(Suvda suspenziyada saqlanadigan juda nozik mineral moddalar).

3. A type of bag net used for investigating the fauna of the sea bottom.- (Dengiz tubidagi faunani o'rganish uchun ishlatiladigan sumka to'ring bir turi).

Webster, Noahning Webster's New International Dictionary of the English Language lug'atida esa ushbu ta'rif keltirilgan: **Dredge**- any of various machines equipped with scooping or suction devices used in deepening harbors and waterways and in underwater mining- (Limanlar va suv yo'llarini chuqurlashtirishda va suv osti konlarida ishlatiladigan tortib olish yoki assimilyatsiya qilish moslamalari bilan jihozlangan har qanday turli xil mashinalar). M: *This is supported by new equipment, such as a new drill barge and suction dredger, and an increase of the tug boat fleet by 20 percent*- Buni yangi burg'ulash barjasi va assimilyatsiya qilish qurilmasi kabi yangi uskunalar hamda burg'ulash kemalari parkining 20 foizga ko'payishi qo'llab-quvvatlamogda.

4. Smelter - inglizcha "**eritish**" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "**eritish**" degan ma'noni anglatadi. Konchilikda esa eritish zavodi ya'ni rudadan metallarni olish uchun isitiladigan joy (zavod) tushuniladi. M: The company has three copper mines and a smelter in Arizona (English-Russian mining dictionary. 2015).

Bundan tashqari, tog' - kon sanoatida ishlatiladigan texnik til, masalan, geologiya, uskunalar yoki operatsiyalar bilan bog'liq atamalar ham umumiy adabiy tilga ta'sir qilishi mumkin. Yozuvchilar va ma'ruzachilar o'zlarining yozuvlariga chuqurlik va boylik qo'shadigan metafora, o'xshashlik yoki tavsiflovchi tilni yaratish uchun konchilik terminologiyasidan ilhom olishlari mumkin. Shu tarzda tog'- kon leksikasining umumiy adabiy til bilan o'zaro ta'siri tilni boyitish va kengaytirishga olib kelishi mumkin, chunki u tog' - kon sanoatining yangi istiqbollari, tasvirlari va iboralarini asosiy aloqaga kiritadi. Ushbu konchilik atamalari tog' - kon sanoatining tarixiy rivojlanishini va asrlar davomida konchilik tilini shakllantirgan turli xil lingvistik ta'sirlarni aks ettiradi.

Tog'-kon atamalarining leksik-semantik xususiyatlarini tushunish soha mutaxassislari, tadqiqotchilar, siyosatchilar va manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali muloqot qilish, bilimlarni tarqatish va hamkorlik qilish uchun zarurdir.

Madaniy va lingvistik omillarning kon terminologiyasiga ta'siri mahalliy konchilik amaliyotlari, mintaqaviy qoidalar va ijtimoiy qadriyatlarni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu ta'sirlarni tan olish global tog'-kon sanoatida samarali madaniyatlararo muloqot va hamkorlik uchun juda muhimdir. Konchilik terminologiyasidagi standartlashtirish va izchillik samarali muloqot va bilim almashish

uchun juda muhimdir. Turli tillar va mintaqalarda atamalar va ta'riflardan izchil foydalanish aniq tushunishni osonlashtiradi va chalkashliklarni kamaytiradi. Tog'-kon lug'atlari, terminologiya ma'lumotlar bazalari va ko'p tilli til vositalarini ishlab chiqish va qabul qilish ushbu standartlashtirishga erishishga yordam beradi va sohada tillardan izchil foydalanishni rag'batlantiradi.

XULOSA

Konchilik leksikasi va umumabadiy til o'rtasidagi o'zaro munosabatlar zamonaviy jamiyatda axborot almashinuvi va tushunishni ta'minlaydi. Bu jarayon, o'z navbatida, konchilik leksikasining kelajagi va umumiy tilimizning boyishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir soha o'z terminlarini rivojlantirish orqali tilimizni boyitadi, shuningdek, umumiy madaniy merosimizga hissa qo'shadi. Bu o'zaro ta'sir natijasida tilimiz yanada rivojlanadi va yangilanadi. Umumiy adabiyot va konchilik terminlari orasidagi bog'liqlik, ularning o'zaro qanday aloqa yaratishini tushunishda yordam beradi. Terminlar konchilik sohasida aniqlik va qat'iylik uchun muhim, lekin ularni umumiy tilda ham ishlatishning o'ziga xos jarayoni bor. Bu esa har ikki sohaning o'zaro ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Konchilik leksikasining umumabadiy til bilan o'zaro munosabati, ko'plab sohalarda bilim almashinuvi va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon, shuningdek, odamlar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi va tilni boyitadi. Natijada, konchilik leksikasi nafaqat mutaxassislar, balki keng jamoatchilik tomonidan ham qabul qilinib, umumiy tilning rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. American Society for Testing and Materials. Standard Definitions of Terms Used in Powder Metallurgy. B243-65 in 1966 Book of ASTM Standards: Part 7, Nonferrous and Metals and Alloys (Including Corrosion Tests); Die-Cast Metals; Electrodeposited Metallic Coatings; Metal Powders; Nonferrous Filler Metal. Philadelphia, PA., Philadelphia, PA., 1966, pp. 300-304.
2. English-Russian mining dictionary. 2015.
3. Gu, Y. (2005). *Vocabulary learning strategies in the Chinese EFL context*. Singapore: Marshall Cavendish Academic.
4. Laufer, B. (2000). Task effect on instructed vocabulary learning: The hypothesis of 'involvement.' In AILA '99 Tokyo Organizing Committee (Ed.), *Selected papers from AILA'99 Tokyo* (pp. 47-62). Tokyo, Japan: Waseda University Press.
5. McGrawHill Dictionary of Scientific & Technical Terms, 6E, Copyright © 2003 by The McGraw-Hill Companies, Inc.
6. Petrov, M., & Ahmedov, N. (2016). Lexical-Semantic Analysis of Mining Terms in Uzbek Language. Proceedings of the International Conference on Mining and Natural Resources, 48-62
7. Tweney, C. F., and L. E. C. Hughes (eds.) Chamber's Technical Dictionary. MacMillan Co., New York, 3rd ed., 1958, 1028 pp.; supplement, pp. 952-1028.
8. Webster, Noah. Webster's New International Dictionary of the English Language, Second Edition, Unabridged, Mass., 1960 (C 1959), 3194 pp.

